

JISMONIY MADANIYAT JARAYONLARIDA QADRIYATLARNING UYG‘UNLASHUVI XUSUSIDA

Rafiyev Hamraql Tolibovich

O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha
mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Samarqand filiali professori

Qadriyatlar buyuk g‘oyalarni amalga oshirishda ilhomlantiruvchi qudratli kuch ekanligi tarixiy manbalarda isbotlangan. Jismoniy madaniyat jarayonlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nihoyatda boy: “Olimp o‘yinlari”, “Osiyo o‘yinlari”, “Islom birdamlik o‘yinlari”, “Sport”, “Badan tarbiya”, “Marafon yugurish”, “Olimpiya cho‘qqilari”, “Bunyodkor stadioni”, “Olimpiya shaharchasi”, “Prezident olimpiyadasi” va boshqalarning umum-tarixiy, milliy va umum-insoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi jamiyatimizni mukammal bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

Ishimizning maqsadi: Jismoniy madaniyatning “Sport”, “Sport musobaqalari” hamda “Zamonaviy sport inshootlari”ni barpo etilishi jarayonlarida qadriyatlarning uyg‘unlashuviga oid qisqacha ilmiy tahlillarimizni bayon etishdan iborat.

Ushbu mavzuga oid bo‘lgan ilmiy izlanishlar tahlilining ko‘rsatishicha, jismoniy madaniyat jarayonlarining qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi eng dolzarb ilmiy tadqiqot manbalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada A.Atoyev, T.Usmonxujayev, N.Lyubishova, R.Abdumalikov, J.Toshpulatov, O‘.Ibrogimov, T.Xoldorov, F.Axmedov, J.Axmedov va boshkalar o‘z fikr muloxazalarini **bildirganlar**.

Zaminimizda jismoniy madaniyat jarayonlari “Jismoniy tarbiya,” “Badan tarbiya”, “Jismoniy kuch, quvvat” shakllarida qadimdan amalga oshirib kelingan. Jumladan:

1. Qadimiy ertaklarda Go‘ro‘g‘li, Quntug‘mish, Alpomish dostonida va x.k.larda;
2. Abu Ali Ibn Sinoning ming yil avval yaratgan besh jildli “Tib qonunlari”da “Kimda kim “Badan tarbiya” bilan mo‘tadil shug‘ullansa dori darmonga, shifokorga muhtoj bo‘lmaydi” ya’ni kasal bo‘lmaydi, yoki kasalni davolashdan, uni oldini olgan ma’qul degan g‘oyalari;
3. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asarida, har bir elchi “Shaxmat” va “Chavgon” o‘yinlarini bilishi zarurligi aytilgani;
4. Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari”da, “Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur” g‘oyasi bilan yurti boshqargani;
5. Pahlavon Maxmurning “Kurash” haqidagi falsafiy g‘oyalari;
6. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobidagi “Badan tarbiya” haqidagi fikrlari;
7. O‘zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Sog‘lom inson – sog‘lom millat” hamda yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi kitobida (2022-yil) “Jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish aholi salomatligini ta’minlashda muhim omildir” g‘oyasi;

8. Vazirlar mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-sonli; “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to’g’risida”gi qarorlari

Jismoniy madaniyatning asosiy zamonaviy jarayonlaridan biri, bu “Sport”, “Sport musobaqalari”, “Sport inshootlari” va h.k. Bularning yuqori cho’qqisi “Olimp o’yinlari” hisoblanib, juda ko’p qadriyatlar bilan uyg’unlashgan: “Dustlik” “Salomatlik” “Tinchlik” “go’zallik” va h.k. 1890-yillarda Fransus pedagogi, jamoat arbobi Per de Kuberten jismoniy madaniyat sohasidagi asosiy umuminsoniy qadriyatga aylangan “Olimp o’yinlari”ni qayta tiklanishiga asos soldi. Olimp o’yinlarini qayta tiklash orqali insonlarni jismoniy harakatida “Kuchliroq”, “Tezroq”, “Balandroq” chaqiriq shiorini olg’a surdi. Olimp o’yinlari muhim qadriyatlardan hisoblangan, “Xalqlar o’rtasida do’stlikni” “Tinchlikni” mustahkamlashga, odamlarni sog’ligini yaxshilash, jismoniy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga da’vat qilib kelmoqda. Dastlab olimp o’yinlarining jamiyat oldidagi vazifa (funksiya)lari 4-5 bo’lsa, hozirgi kunda ularning soni 10 dan oshib ketdi, (birinchi Prezident, “Hech bir narsa mamlakatni sportchalik dunyoga tez tanita olmaydi” va b. Muhammadqodir Abdullayev to’g’risida). Sport buyuk shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazadi: Rele, Ronaldo va boshqalar.

Osiyo o’yinlarining asoschisi Hindistonlik Sondi, Osiyo o’yinlarining asosiy maqsadi etib, Osiyo o’yinlariga xar bir mamlakat tayyorgarlik ko’rish jarayonida Osiyo xalqlarini sog’ligini mustahkamlash. Osiyo o’yinlari sport musobaqalariga tayyorlanish orqali, Osiyo mamlakatlari sportchilarining do’stligini mustahkamlab, Osiyo davlatlari jamoalarini Olimp o’yinlariga puxta tayyorlanishni belgilagan edi.

Sport musobaqalarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o’zida uyg’unlashtirgan yana bir turi, bu “Marafon yugurish” (42.2km) bo’lib dunyoning yirik shaharlarida, bir necha yillardan beri o’tkazib kelinmoqda. Yevropa mamlakatlarida “Parij marafoni”, “Rim marafoni”, “Berlin marafoni” va boshqalarda yuz minglab odamlar ishtirok etadi. AQSHda “Los-anjeles marafoni”, “Nyu-York marafoni” va boshqalar. Ma’lumotlarga ko’ri Nyu-York marafonida 400 mingga yaqin kishi ishtirok etar ekan.

Bizning mamlakatimizda ham ommaviy yugurish musobaqalari tobora keng avj olmoqda. Bu oddiy 5 ming qadam yugurishdan marafon yugurishigacha yetib keldik. Masalan “Toshkent marafoni”. “Samarqand marafoni”, “Buxoro marafoni” va x.k.

Biz bugun Siz bilan “Samarqand marafoni” atrofida mavzuni tahlil qilishga harakat qilamiz. “Samarqand marafoni”ning asl maqsadi, aholini marafon yugurishga jalb qilish orqali salomatligini, ishtirokchilarni bir birov bilan tanishuvi orqali do’stligini mustahkamlash hamda Samarqand shahridagi asl milliy qadriyatlarimizdan bo’lgan, tarixiy obidalar bilan yaqindan tanishtirish orqali umuminsoniy qadriyatlarni uyg’unlashuviga erishish va x.k larga qaratilgan.

Samarqand marafoni 7-marta o’tkazilib, bu yilgi ishtirokchilar soni 8 ming kishidan ortiq bo’lib, 53 mamlakatdan 1380 kishi qatnashdi. Bu “Samarqand marafoni”da yangi rekord ko’rsatkich bo’ldi.

Dastlab marafon yugurish masofasining yo‘nalishi (marshrut) aniqlanib, viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlandi (1-rasm). Yugurishni boshlanishi umuminsoniy qadriyatga aylangan “Registon” maydoni oldida “Start” berilib, “Amir Temur maqbarasi” yaqinidan va haykali oldidan, “Universitet xiyoboni” orqali “Siyob bozori” yonidan, “Shohi zinda” ziyoratgohi oldidan, “Imom A’zam” machitigacha kelib, yana shu yo‘ldan qaytib tarixiy qadriyatlar orqali, yana “Registonga” qaytib kelish belgilangan edi. Bu sport musobaqasi jarayonida umuminsoniy qadriyatlardan biri hisoblangan “Marafon yugurish”ning, “Samarqand marafoni” orqali Samarqand shahridagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvining yorqin ifodasiga aylandi.

Bugun mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etilishi munosabati bilan, sport musobaqalarining yangicha shakllarini qadriyatlar bilan bog‘lab, hayotga tadbig‘ etilishining guvohi bo‘layapmiz. Bular: “Prezident olimpiadasi” “Besh tashabbus Olimpiadasi”, “Olimpiya cho‘qqilari”, “Aholini jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari”, “Rahbar kubogi”, kabi sport musobaqalarining nomlari hamda jarayonlarida barcha yo‘nalishlardagi qadriyatlarning uyg‘unlashuvi kuzatilmoqda. m.n: “Prezident olimpiadasi”, “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Olimpiya Cho‘qqilari”da, “Olimpiya” tushunchasi orqali.

Jismoniy madaniyat jarayonlarida qadriyatlarning uyg‘unlashuv jarayoni yangi zamonaviy sport inshootlarining barpo etilishida ham yaqqol kuzatilmoqda. Bu borada 2025-yilning 11-noyabr kuni, Yangi Toshkentda 55 ming o‘rinli stadion qurilishiga tamal toshi qo‘yilishida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev: “Yangi Toshkent” hududidagi barcha loyihalar zamonaviy me‘morchilik va milliy qadriyatlar uyg‘unligida ekologik va “Aqlli boshqaruv”ga asoslanib barpo etilmoqda. Shu umumiy konsepsiya asosida quriladigan yangi stadion ham tabiat bilan uyg‘un bo‘ladi hamda “Yashil energiya”, “Aqlli boshqaruv” va “Qulay muhit” tamoyillariga asoslanadi” deb ta’kidlandi. Dunyo bo‘yicha qurilgan barcha yirik sport inshootlari, jumladan Toshkent olimpiya shaharchasi ham ana shu tamoyillar asosida qurilgan.

Ana shu jarayonlarni samarali ijrosini ta’minlashda, Xalqimizning jismoniy madaniyat ta’limini yanada chuqurlashtirish muhim omillardan biridir. Bunday omilning samarali ijrosida xalqimizning jismoniy madaniyatini shakllantirish uchun, jismoniy madaniyat jarayonlarida qadriyatlarning uyg‘unlashuvini mukammal o‘rganish muhim ahamiyatga ega deb quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Jismoniy madaniyat jarayonlarida sport musobaqalari, sport inshootlari va maydonlarining ko‘rilishida qadriyatlarning uyg‘unlashuvi kuzatilmoqda;
2. Jismoniy madaniyat jarayonlarida qadriyatlarning uyg‘unlashuvi aholining qadriyatlarga oid bilim tasavvurlarini kengaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda;
3. Jismoniy madaniyat jarayonlarida qadriyatlarning uyg‘unlashuvi, shaxs jismoniy madaniyati ta’limini hamda umumiy madaniyatini shakllantirishga katta imkoniyatlar yaratmoqda;

4. Jismoniy madaniyat jarayonlarida qadriyatlarning uygʻunlashuvini chuqurroq oʻrganish, ularni boʻlajak xato kamchiliklardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.